

AN-BOYOVUT-2 G'O'ZA NAVI



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2022-yilda Jizzax viloyati mehnatkashlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda AN-Boyovut-2 g'o'za navi 2000-yillarda Jizzax viloyatida katta maydonlarda ekilib, o'zining hosildorligi va ertapisharligi bilan yuqori ko'rsatgichlarga ega bo'lganligi va viloyatda fermer xo'jaliklari tomonidan paxta xom-ashyosini yetkazib berish bo'yicha shartnomaviy majburiyatni ortig'i bilan bajarilishida muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sabab ushbu g'o'za navini qayta tiklash borasidagi ko'rsatma berdilar.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev topshirig'i ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va Genetika va O'simliklar eksperimental biologiyasi instituti olimlari AN-Boyovut-2 g'o'za navini qayta tiklash va ushbu g'o'za nav urug'larini ko'paytirish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirdi.

"AN-Boyovut-2" g'o'za navining patent muddati o'tib ketganligi va boshqa sabablar tufayli ushbu nav ekin maydonlari keskin qisqargan.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev topshirig'iga muvofiq Fanlar akademiyasi va Institut rahbariyatining shaxsan q.x.f.d. prof. A.Narimanovning sa'yi harakatlari bilan 2023-yil 10-fevralda Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan "AN-Boyovut-2" g'o'za naviga tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga №MGU 44816 raqamli guvohnoma qayta olingan.

"AN-Boyovut-2" g'o'za navining boshlang'ich orginal urug'lik chigitlarini tayyorlash, navni qayta ishlab chiqarishga jalb qilgan holda ekin maydonlarini kengaytirish bo'yicha Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi "Guliston sayqali" paxta-to'qimachilik klasterida elita urug'chiligi tashkil etildi. Asosiy maqsad mazkur elita urug'chilik xo'jaligida kelgusi yil 2024-yilda ekish uchun "AN-Boyovut-2" g'o'za navining yuqori sifatli urug'larini ko'paytirish va ekin maydonlarini kengaytirishdir.

Shuningdek Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanining 625 gektar paxta maydonidagi urug'chilik xo'jaliklarida ham urug'lik paxta yetishtirish ishlari olib borildi.

Bu yilgi mavsumda o'ta issiq haroratda Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi "Guliston sayqali" paxta-to'qimachilik klasterida ekilgan An- Bayovut-2 g'o'za navida to'kilgan hosil elementlari esa boshqa g'o'za navlariga nisbatan 20-25% ga kamligini namoyon qilgan.Ushbu nav ekilgan maydonlar faqat bir marta

sug'orilgan.

Natijada AN-Boyovut-2 g'o'za navidan har gektar maydondan 42-44 sentnerdan paxta hosidi olingan. Shuningdek AN-Boyovut-2 g'o'za navi joylashgan maydon atrofida ekilgan boshqa nav ekin maydonlarda esa 33-35 s/ga paxta hosili olingan.

Jizzax va Sirdaryo viloyatida ekilgan erta pishar, suvsizlikka va sho'rlanishga chidamli, mashina terimiga mos, tola sifati yuqori bo'lgan g'o'zaning An- Boyovut-2 navining erta pisharligi, hosildorligi va tola sifati yuqori hamda kasalliklar, tuproq sho'rlanishiga, issiq haroratga chidamli bo'lganligi tufayli Guliston tumani va qo'shni tuman va viloyatlardagi fermerlar kelgusi yilda ushbu nav urug'lariga hozirdan buyurtma berishmoqda.

Mazkur navning ertapishar va boshqa qator ijobiy xususiyatlarga ega ekanligi uning Qoraqalpoqiston Respublikasi va shimoliy mintaqalarda ekib yuqori hosildorlikka erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.